



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI



2018 yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar



Joriy davrda 16 826,6 mlrd so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, ularning 58,8 %i jalb etilgan mablag`lar hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, korhona, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan 41,2 %i moliyalashtirildi.






Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, yani jami investitsiyalarning 30,4 %i korhona va tashkilotlarning o`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan. Shuningdek, to`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan ham katta hajmda investitsiyalar moliyalashtirildi 16,7 %, aholi mablag`lari hisobidan 10,8 %,

tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari 20,7 %, Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi 7,0 %, O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 11,2 %, Respublika byudjeti 2,3 % va Davlat maqsadli jamg`armalari hisobidan 0,9 % asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi.

Moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, %da)





Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)



	mlrd.so`m	o`shish surati, %da	jamiga nisbatan, %da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	16 826,6	129,4	100,0
Respublika dyudjeti	391,6	58,7	2,3
Davlat maqsadli jamg`armalari	147,6	44,3	0,9
Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi	1 177,7	3 m.	7,0
O`zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	1 886,1	2,6 m.	11,2
Korhona mablag`lari	5 107,2	116,9	30,4
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari	3 489,2	3,4 m.	20,7
To`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	2 803,4	89,4	16,7
Aholi mablag`i	1 823,8	85,3	10,8

Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalariga quyidagilarni keltirish mumkin: "Auminso-Amantoy konlari" da oltin-ma'danli konlarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha konlarni qurish (I-II bosqich), "Muruntau" karyerini qayta ishlash, (V – navbat), sement zavodi qurilishi, Yoshlik 1 konini o`zlashtirish, sement zavodi qurilishi, Yoshlik 1 konini o`zlashtirish va boshqalar.

O`zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan bajarilayotgan yirik investit-


siya loyihalari: 450 MVt quvvatli 2 bug`-gaz qurilmasini kengaytirish bo'yicha qurilish ishlari, Namangan viloyati To`raqo`rg`on tumanida umumiy quvvati 900 MVt bo'lgan yangi issiqlik elektrostansiyasi qurilishi, ammiak va karbamid ishlab chiqarishini tashkil etish, Polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va metanol ishlab chiqarish kompleksining qurilishi va boshqalar.

Tijorat banklari kreditlari hisobidan shahar joylarda turar joylar qurilishiga investitsiyalar jadal o`zlashtirilmoqda.



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o`shish suratlari



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilishi bo`yicha o`tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o`shish surati 2,3 marta ko`payish Navoiy viloyatida kuzatildi. Bu asosan qimmatli metal konlarini ozlashtirish bo`yicha investitsiyalar bilan bog`liq. Namangan viloyatining o`tgan yilning mos davriga nisbatan 2 marta ortiq o`shishi asosan To`raqo`rg`on tumanida issiqlik elektr stansiyasi qurilish bilan bog`liq. Surxondaryo viloyatida ham 2 marta o`shish kuzatilib, ushbu hududdagi yirik investitsiya loyihalaridan Sherobod


tumanida sement zavodining qurilishini keltirish mumkin. Toshkent viloyatida ham yuqori o`shish surati 144,2 % kuzatilib, bu hududda Yoshlik 1 konini o`zlashtirish bo`yicha investitsiyalarning jadal o`zlashtirilayotgani bilan bog`lash mumkin.

Faqat Buxoro viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalarning o`tgan yilga nisbatan tushishi kuzatildi - 72,2 %. Bu albatta o`tgan yillarda ushbu hududda yirik investitsiya loyihasi – gazni qayta ishlash zavodi kompleksi qurilishi bo`yicha investitsiyalarning katta bo`lgani bilan izohlanadi.



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar (davomi)

Respublikadagi ulushi:



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o`zlashtirilgan hajmi bo`yicha hududlar kesimida Toshkent shahri hamon yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 22 %i o`zlashtirildi.

Shuningdek Buxoro viloyatida o`tgan yilning mos davriga nisbatan tushish kuzatilgan bo`lsada, investitsiyalar hajmi bo`yicha Respublikadagi ulushi Toshkent


shahridan keyingi o`rinda 15 % ni tashkil etmoqda.

Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida ushbu ko`rsatkich mos ravishda 12 va 11 %ni tashkil etdi.

Sirdaryo, Xorazm hamda Jizzax viloyatlarida investitsiyalar eng kam o`zlashtirildi, har birining Respublikadagi ulushi 2 %ni tashkil etdi.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 10 247,7 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 5 067,5 mlrd.so'm va boshqa xarajatlarga 1 511,4 mlrd. so'm o'zlashtirildi.

Hududlar kesimda texnologik tarkibi





Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



Joriy davrda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo`naltirilgan. Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 10 656,6 mlrd.so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 63,3 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 3 567,5 mlrd.so`mni tashkil etdi va Respublikada jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 21,2 %ini tashkil etdi. Qolgan 15,5 %,

yani 2 608,5 mlrd.so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.


Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Buxoro viloyatida kuzatilib, u 82,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, Namangan viloyatida 81,9 %, Surxondaryoda 76,8 %, Qasqadaryoda 74,8 % va Qoraqalpog`iston Respublikasida 72,4 %ni tashkil etdi.

Ushbu ko`rsatkichning eng past darajasi Toshkent shahrida kuzatilib, u 42,9 %ni tashkil etdi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibida tog`kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 3 717,1 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 22,1 %i o`zlashtirilgan. Shundan 2 983,8 mlrd.so`m yoki jami investitsiyalarning 17,7 %i xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarishga yo`naltirilgan.

Qayta ishlash sanoatida 3 170,5 mlrd. so`m yoki jami asosiy

kapitalga investitsiyalarning 18,8 %i o`zlashtirildi.

Qayta ishlash sanoati tarkibida eng ko`p investitsiya o`zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar:

- Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 659,7 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,9 %);

- metallurgiya sanoati 627,3 mlrd.so`m (3,7 %);

- to`qimachilik mahsulotlari va kiyim kechak ishlab chiqarish 459,9 mlrd.so`m (2,7 %).



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



	Jami investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To`g`ridan - to`g`ri va boshqa investitsiya va kreditlar	shu jumladan:	
		investitsiya	kredit		investitsiya	kredit
O`zbekiston Respublikasi	4 689,5	2 628,8	2 060,7	2 803,4	2 628,8	174,6
Qoraqalpog`iston Respublikasi	149,0	115,9	33,1	115,9	115,9	-
viloyatlar:						
Andijon	47,7	36,5	11,2	36,7	36,5	0,1
Buxoro	1 744,0	1 711,8	32,2	1 711,8	1 711,8	-
Jizzax	27,0	27,0	0,0	27,0	27,0	-
Qashqadaryo	547,2	415,4	131,8	540,8	415,4	125,4
Navoiy	999,5	13,1	986,4	46,5	13,0	33,5
Namangan	600,3	26,8	573,5	26,8	26,8	-
Samarqand	14,4	9,5	4,9	10,9	9,5	1,4
Surhondaryo	92,9	28,6	64,3	28,6	28,6	-
Sirdaryo	33,8	6,3	27,5	6,3	6,3	-
Toshkent	92,5	26,2	66,3	26,2	26,2	-
Farg`ona	97,9	11,9	86,0	18,3	11,9	6,4
Xorazm	28,6	3,9	24,7	3,9	3,9	-
Toshkent sh.	214,6	195,9	18,7	203,7	195,8	7,9



Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar (davomi)



Joriy davrda 4 689,5 mlrd.so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 27,9 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.


Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 2 628,8 mlrd. so`mni tashkil etdi va qolgan 2 060,7 mlrd.so`m xorijiy kreditlar hisobiga to`g`ri keldi.

To`g`ridan - to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 2 803,4 mlrd so`m o`zlashtirilgan bo`lib, undan 93,8 %i yoki 2 628,8 mlrd.so`m investitsiyalar va qolgan 6,2 %i yoki 174,6

mlrd.so`m kreditlarni tashkil etdi.


Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`sinh surati 121,2 %ni tashkil etdi. Ushbu ko`rsatkichni hududlar kesimida ko`radigan bo`lsak, eng yuqori ko`rsatkich Navoiy viloyatida qayd etilganini ko`rish mumkin. Ushbu hududda u qariyb 7,9 marttaga ko`paygan.

Eng past o`sinh surati Samarqand viloyatida kuzatilib, u o`tgan yilning mos davriga nisbatan bor yo`g`i 30,8 %ni tashkil etdi.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar



Joriy davrda ham asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlarning katta qismi tog`-kon sanoatida o`zlashtirilib, u 2 269,2 mlrd. so`mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 48,4 %ni tashkil etdi. Bu Kandim konlar guruhini ishlab chiqarishga tayyorlash va gazni qayta ishlash zavodining qurilishi bilan bog`liq.


Elektr, gaz bilan ta`minlash faoliyati bo`yicha 1 065,0 mlrd. so`m xorijiy investitsiya va kreditlar o`zlashtirilgan bo`lib, ular asosan yuqorida keltirib o`tilganidek 450 MVt

quvvatli 2 bug`-gaz qurilmasini kengaytirish bo`yicha qurilish ishlari, Namangan viloyati To`raqo`rg`on tumanida umumiy quvvati 900 MVt bo`lgan yangi issiqlik elektrostantsiyasi qurilishi kabi yirik investitsiya loyihalari hisobidan ta`minlandi.

Hajm jihatidan keyingi o`rinni qayta ishlash sanoati egallagan. Ushbu faoliyat turi bo`yicha 876,1 mlrd.so`m yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 18,7 %i o`zlashtirildi.



Obyektlarni ishga tushirish



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 1 869,2 ming kv.m, bo`lgan 14 104 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan bo`lib, ulardan umumiy maydoni 1 149,2 ming kv.m. bo`lgan 9 661 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 168,4 ming kv.m. 1 931 ta turar joy qurib bitkazilib, ishga tushirildi.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko`radigan

bo`lsak, eng ko`pi Toshkent viloyatida ishga tushirilgan 258,6 ming kv.m. va u Respublika bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 13,8 %ini tashkil etdi. Keyingi o`rinlarda Qashqadaryo viloyati va Qoraqalpog`iston Respublikasi egallagan bo`lib, mos ravishda 11,4 va 10,9 %ni tashkil etgan.

Eng kam turar joy Sirdaryo viloyatida ishga tushirilgan bo`lib, uning ulushi 0,9 %ni tshkil etdi.




Obyektlarni ishga tushirish (davomi)

Sogʻliqni saqlash sohasiga oid obyektlar boʻyicha Sirdaryo viloyati va Toshkent shahrida 1 tadan jami 100 qatnovga moʻljallangan 2 ambulator poliklinikalar, taʼlim

sohasida Sirdaryo viloyatida 40 oʻquvchi oʻrinli umumtaʼlim maktabi rekonstruksiya qilinib, ishga tushirildi.

Ishga tushirilgan turar joylar



Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Nashr uchun masʼul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56